



YUY XUANING “YASHAMOQ” ASARI TAHLILI

Xushvaqtova Latofat

Oriental universiteti Samarqand kampusi filologiya va tillarni o‘qitish: o‘zbek tili yo‘nalishi 1-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: Bozorova Gulruh

Oriental universiteti Samarqand kampusi Tillar–1 kafedrası o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada Yuy Xuaning “Yashamoq” asarida aks etgan hayot shafqatsizligi va ayni paytda inson ruhiyatining yengilmasligi tasvirlanadi. Bu asar inson ruhi va qalbining kuchini ko‘rsatib, har bir kishiga hayotda o‘z o‘rnini topishda yordam beradi. Yuy Xuani “Yashamoq” romani o‘ziga xos realistik uslubda yozilganligi bilan ajralib turadi. Asar tili sodda, ammo juda ta’sirli va dramatik tarzda yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: badiiy asar, badiiy asar tili, roman, syujet, obrazlar sistemasi.

Аннотация. В данной статье описывается жестокость жизни и одновременно непобедимость человеческого духа, отраженные в произведении Юй Хуа «Жить». Это произведение демонстрирует силу человеческого духа и души, помогая каждому найти свое место в жизни. Роман Юй Хуа «Жить» отличается уникальным реалистическим стилем. Язык произведения прост, но очень трогателен и драматичен.

Ключевые слова: литературное произведение, литературный язык, роман, сюжет, система образов.

Annotation. This article describes the cruelty of life and at the same time the invincibility of the human spirit, reflected in Yu Hua's work "To Live". This work shows the strength of the human spirit and soul, helping everyone to find their place in life. Yu Hua's novel "To Live" is distinguished by its unique realistic style. The language of the work is simple, but very touching and dramatic.

Key words: literary work, literary language, novel, plot, system of images.

KIRISH

Yuy Xua zamonaviy xitoy adabiyotining “yangi talqin” vakili deb jahon miqyosida e’tirof etilgan yozuvchi hisoblanadi. Yozuvchining eng mashhur asari “Yashamoq” bo‘lib, unda Fugui ismli dehqonning urushlar va ocharchilik davridagi og‘ir hayotidan hikoya qilinadi. Mazkur asar asosida Chjan Imou tomonidan olingan film Kan kinofestivalining bosh mukofotiga sazavor bo‘lgan. Ushbu kitob “Tarjimonlar akademiyasi” tomonidan o‘zbek tiliga o‘girildi. Kitob xitoy adabiyotining eng sara namunalaridan biri bo‘lib, o‘zbek kitobxonlari orasida “Ko‘z yoshlarga g‘arq qilgan asar” sifatida katta shuhrat qozondi. Yuy Xua asarlari inson ruhiyatining eng nozik qirralari, qiyinchiliklarni yengib o‘tish, sevgi va mehr-muhabbat kabi insoniy qadriyatlarini ta’kidlashi bilan ajralib turadi. Xitoyning XX asrdagi yirik siyosiy va ijtimoiy o‘zgarishlarining oddiy insonlar hayotiga ko‘rsatgan ta’siri tasvirlanadi. Asar facebook platformasidagi “Kitobxonlar davrasi” ommaviy guruhida juda ko‘p tahli va taqrizlarga uchradi. Asar yigirmadan ortiq tilga tarjima qilindi. AQSH davlati kitobxonlari tomonidan ham yuqori baholandi. Yuy Xua shifokorlar oilasida tug‘ilgan-da, unga berilgan iste’dod uni xalq dardi va zamon qiyinchiliklarini olib chiqadigan asarlar yozishga



majburladi. Ushbu asarni o'qigan o'zbek kitobxonlari asar yuzasidan shunday fikrlar bildirishdi: "Nega doim Yevropa yoki Amerika yozuvchilaridan tarjima qilishadi? Xitoy, Koreya yoki Yaponiya adabiyotidan yangi tarjimalarni juda kam ko'ramiz. Ularning yozganlari ham adabiyot maydonida alohida o'ringa ega. Yuy Xua qalamiga mansub roman o'zbek kitobxonlari tomonidan noodatiy, his tuyg'ular bilan ayovsiz o'ynashadigan asar sifatida baholanadi".

1993-yil Yuy Xua tomonida jahonshumul roman yozildi. Asardagi asosiy mazmun inson har qanday og'ir yo'qotishlar va shavqatsiz taqdir sinovlariga qaramay yashash uchun kuch topish kerakdir. Asar shunchaki bir oila taqdiri emas, balki XX asr Xitoy tarixining oynasidir. Fugui ismli qahramonning bir umrlik fojiasi, yo'qotishlari va mislsiz irodasi aks etgan asardir. Bu shunchaki bir oilaning inqirozi emas, balki qismatning achchiq sinovlari qarshisida taslim bo'lmagan inson ruhiga qo'yilgan haykaldir. Yozuvchi qishloqqa – qishloq yurib, xalq qo'shiqlarini yig'ayotgan paytida. Jazirama issiqda o'zining qarigan ho'kizi bilan ishlayotgan cholni ko'rib qoladi. Fugui ho'kizga qarata: "Erchi, Yuchin, Jiashen, Fengxia, Kugen hammang harakat qilinglar", – deb vafot etgan yaqinlarining ismlarini aytib haydayotgan bo'ladi. Muallif qariyani bitta ho'kizga shuncha nom qo'yganidan taajjulanib, unda bu haqda so'raydi. Roman mana shu xotiralar silsilasi orqali bizni Fuguing yoshligiga - qimorga mukkasidan ketgan, boylik ichida yurgan takabbur yigitning hayotiga yetaklaydi. Asar fojialari birin ketin shu tarzda davom etadi. Xu sulolasining merosxo'ri Fugui qimorboz Longer bilan o'yin o'ynab, butun oilaviy merosini uy-joy va yerlarini yutqazadi. Uning otasi bu sharmandalikka chiday olmay vafot etadi. Fugui bir kechada tilanchiga aylanib qoladi. Fugui kasal onasiga dori izlab shaharga borganida, kutilmaganda Milliy armiya tomonidan urushga olib ketiladi. Bir necha yil urush qon-qirg'inlar ichida qolib ketadi. Uyiga qaytganda onasi vafot etadi. Qizi Fenxia og'ir kasallik tufayli soqov bo'lib qoladi. Shu tariqa oila a'zolaridan ayrilishni boshlaydi. O'g'li Yuchin tuman hokimining xotiniga qon beraman, deb shifokorlar tomonidan qoni qolmaguncha qon beradi. Yolg'iz qiz Fengxia soqovligi tufayli kech turmushga chiqadi. Tug'ruq paytida bolasini dunyoga keltirib vafot etadi. Xotini Jiashen og'ir mehnat qilganligi sababli bo'g'in kasalligiga duchor bo'ladi, farzand dog'ini ko'tara olmay vafot etadi. Kuyovi Erchi bozorda yuk tashuvchilik qiladi. U xotini Fengxiyaga juda mehribon bo'ladi. Xotining vafotidan so'ng tushkunlikka tushib yuk tagida qolib vafot etadi. Qariya Fugui yolg'iz nabirasi bilan qolib ketadi. Uning ismi Kugen bo'lib baxtsiz kunlarda tug'ilgan bola bo'ladi. Isitma qilib yotib qoladi. Fugui dalada ishlashi majbur edi. Nabirasiga loviya pishirib tashlab ketadi. Yosh bola ocharchilik yillarida ovqatga to'ymaganligi sababli og'ziga ko'p ovqat soladi va nafas yo'lga tiqilib vafot etadi. Asar yakunida Fugui butunlay yolg'iz qoladi. U o'ziga bitta keksaygan ho'kiz sotib oladi. Uni Fugui deb ataydi. U o'limnini kutmaydi, hayotdan nolimaydi. Uning uchun yashashni o'zi bir g'alabadir. Bir inson uchun juda ham og'ir hayot. Uch avlod vakilini tuproqqa qo'yish va ulardan ko'proq yashash. Oila a'zolarining birin-ketin vafot etishi orqali



insonning qayg‘u bilan kurashishi va hayotning o‘zgaruvchanligiga moslashishi har qanday insonning ham qo‘lidan kelavermaydi.

XULOSA

Ushbu asarga qiziqishim Abdukarim Mirzayevning kitobni juda chiroyli qilib sharhlagani va qanchalik ta’sirli qilib so‘zlaganini eshitib, bu asarni o‘qib ko‘rdim. Asarning eng tasrli joyi bu o‘z o‘g‘lini tuproqqa berishidir. Ertalab yugurib xursand bo‘lib maktabga ketgan bolani kechki payt otasi jonsiz ko‘tarib kelishi va ota-onasi qabri oldiga qo‘yishi. Bu holatni xotinidan ancha payt yashirishga harakat qiladi, onaizor esa buni biladi. Fugui bir shior bilan yashadi. Umidimizni yo‘qotsak qanday qilib yashashimiz mumkin, axir? Yuy Xuaning ushbu asari bizni o‘z hayotimizga boshqacha nazar tashlashga majbur qiladi. Biz ko‘pincha kichik muammolardan fojia yasaymiz, Fugui esa hamma narsasini yo‘qotib ham yashashda davom etdi. “Yashamoq” - bu tushkunlik kitobi emas, bu umid va bardosh madhiyasidir. Dunyo ostun-ustun bo‘lib ketsa ham, quyosh baribir chiqaveradi. Fugui kabi shunchaki yashashda davom etish aslida eng buyuk jasoratdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Yuy Xua. “Yashamoq” (Roman) – Toshkent: Huzur nashriyoti, 2024.
2. Yu Hua. “To live” Orginal xitoycha, 1993.
3. Abdukarim Mirzayev. “Yashamoq” asari tahlili va audio hikoya (YouTube kanali orqali foydalanilgan material).
4. Jahon adabiyoti jurnali. Zamonaviy xitoy adabiyoti va Yuy Xua ijodiga bag‘ishlangan maqolalar to‘plami.